

TOSHKENT VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil  
yanvar-sentabr*



## TOSHKENT VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning 1- oktabr holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 036,3 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 42,8 ming kishiga yoki 1,4 %ga ko'paydi. Shundan, 1 517,7 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 49,99 %) va 1 518,6 ming kishi - qishloq joylarida (50,01 %) ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**3 036,3** *ming kishi*

### Tabiiy o'sish

**+43,2** *ming kishi*

### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar



**49,99%**

#### Qishloq



**50,01%**

### Aholining tabiiy harakati, kishi

2023- yil yanvar-sentabr

	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	o'sish, kamayish, +/-	2022- yil	2023- yil
Tug'ilganlar	54760	54467	-293	24,7	24,2
O'lganlar	11143	11267	124	5,0	5,0
Ko'chib kelganlar	20745	21579	834	9,4	9,6


Ko‘chib ketganlar      26961      21982      -4979      12,2      9,7

	birlik			1000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	o‘shish, kamayish, +,-	2022- yil	2023- yil
Nikohlar	16291	14557	-1734	7,4	6,5
Ajralishlar	3845	3681	-164	1,7	1,6

**Toshkent viloyati bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar**  
2023- yil yanvar-sentabr




**Yosh guruhlari bo‘yicha aholi soni**



2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, Toshkent viloyatida doimiy aholisi sonining **30,1 %**i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,3 %**i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **13,6 %**i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

### Jinsi bo‘yicha aholi tarkibi

2023- yil 1- oktabr holatiga



### Doimiy aholi sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, kishi


	2022- yil	2023- yil	O‘sish sur‘ati, %da
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>2977098</b>	<b>3036250</b>	<b>102,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	53757	55732	103,7
Olmalik	137596	144329	104,9
Angren	177288	181728	102,5
Bekobod	101418	103789	102,3
Ohangaron	40588	41205	101,5

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, %da
Chirchiq	167050	171608	102,7
Yangiyo'l	81394	84134	103,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	109753	111645	101,7
Ohangaron	108608	110662	101,9
Bekobod	162396	165226	101,7
Bo'stonliq	174665	176285	100,9
Bo'ka	131944	134020	101,6
Quyi Chirchiq	113636	115484	101,6
Zangiota	166179	169940	102,3
Yuqori Chirchiq	136695	138517	101,3
Qibray	172156	174727	101,5
Parkent	174403	177263	101,6
Piskent	104762	102710	98,0
O'rta Chirchiq	133979	136334	101,8
Chinoz	141715	144785	102,2
Yangiyo'l	195662	199442	101,9
Toshkent	191454	196685	102,7

Viloyat hududida aholi sonining eng ko'p o'sishi 2023- yil 1- oktabr holatiga Olmaliq (104,9 %), Nurafshon (103,7 %), Yangiyo'l (103,4 %) shaharlarida, Toshkent (102,7 %), Zangiota (102,3 %) va Chinoz (102,2 %) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida Piskent tumanida (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,0 %) aholining eng ko'p pasayishi kuzatildi.

### QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR



### Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-sentabr, kishi




2023- yil yanvar-sentabr oylarida tug‘ilganlar soni 54 467 kishini tashkil qildi va 2022- yilning shu davriga (54 760 kishi) nisbatan -293 taga kamaygan. Shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 24,2 promilleni tashkil qildi.




### O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr, kishi




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **42,2** %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **31,2** %i – o‘simtalardan, **11,8** %i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **8,2** %i boshqa kasalliklardan, **5,1** %i – yuqumli va parazitlar **1,3** %i ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,2** %i – baxtsiz hodisa zaharlanish va jarohatlanishlardan kasalliklardan vafot etganlar.

## VAFOT ETGANLAR



### Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-sentabr, kishi




2023- yil yanvar-sentabr oylarida 11 267 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etdi.






### QAYD ETILGAN NIKOHLAR




### Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti 2023- yil yanvar-sentabr, birlik



Nikoh tuzish koeffitsiyentining avvalgi yilga nisbatan eng ko'p pasayishi Yangiyo'l shahrida (4,9 promillega) va Olmaliq shahrida (7,1 promillega) kuzatiladi.




## NIKOHDAN AJRALISHLAR



### Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-sentabr, birlik




2023- yil yanvar-sentabr oylarida 3 681 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,6 promilleni tashkil etgan.



## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr

### farzandsiz ajrashgan



1 nafar  
farzand  
bilan  
ajrashgan

### 2 va undan ortiq farzand bilan ajrashgan

2023- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **50,4%** i farzandsiz, **24,7%** i bitta farzand bilan va **24,8%** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.



**Aholining migratsiya ko'rsatkichlari**
*(yanvar - sentabr)*
*(kishi)*

Hudud nomi	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosı	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>20745</b>	<b>21579</b>	<b>18672</b>	<b>21982</b>	<b>-6216</b>	<b>-403</b>
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	491	699	311	359	180	340
Olmalıq	1071	1150	988	1138	83	12
Angren	747	754	881	692	-134	62
Bekobod	434	470	564	523	-130	-53
Ohangaron	592	675	336	347	256	328
Chirchiq	1976	2111	1557	1754	419	357
Yangiyo'l	660	1123	466	711	194	412
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	643	684	604	739	39	-55
Ohangaron	342	401	734	652	-392	-251
Bekobod	784	717	759	1398	25	-681
Bo'stonliq	296	217	593	643	-297	-426
Bo'ka	659	610	565	1015	94	-405
Quyı Chirchiq	2038	2273	5992	1804	-3954	469
Zangiota	1577	603	1214	1258	363	-655
Yuqori Chirchiq	2108	1886	4892	2181	-2784	-295
Qibray	287	333	448	411	-161	-78
Parkent	343	341	631	744	-288	-403
Piskent	1130	1345	2412	1128	-1282	217
O'rta Chirchiq	713	828	430	790	283	38
Chinoz	1520	1609	1031	1651	489	-42
Yangiyo'l	2050	2536	1063	1491	987	1045
Toshkent	1071	1150	988	1138	83	12

### Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.